

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY QARASHLARI

Sheranova Maryam Bazarbaevna
A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika
universiteti pedagogika kafedrasida dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19456484>

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk ajdodlarimiz, ulug’ mutafakkir olimlarimiz

Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiylarning axloq-odob, ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, dono maslahalari hozir ham o’z qimmatini yo’qotmasdan yoshlar tarbiyasida dasturilamal bo’lib katta ahamiyat kasb etishi, bolalarni tarbiyalashda nimalarga alohida e’tibor berish kerakligi, bola shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning o’rni muhimligini ta’kidlash bilan birga, uni amalga oshirish yo’llari, bolalarni to’g’ri tarbiyalash masalalari o’rganiladi.

Kalit so’zlar: tarbiya, mehr-muhabbat, qadriyatlar, odob-axloq, bola tarbiyasi, nafosat, aql, nutq, muhit.

Аннотация: в данной статье рассматриваются взгляды и мудрые советы наших великих предков, великих мыслителей, ученых Абу Али ибн Сины, Абу Насра Фароби, Абу Райхана Беруни, Алишера Навои на нравственность, воспитание и образование, которые до сих пор сохраняют свою ценность и имеют большое значение как программа воспитания молодежи, чему следует уделять особое внимание при воспитании детей, важность роли образования в формировании личности ребенка, а также способы его реализации и вопросы правильного воспитания детей.

Ключевые слова: воспитание, любовь, ценности, нравственность, воспитание ребенка, утонченность, ум, речь, окружающая среда.

Annotation: this article examines the views and wise advice of our great ancestors, great thinkers, and scholars such as Abu Ali ibn Sina, Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, and Alisher Navoi, on morality, upbringing, and education. These views still retain their value and are of great importance as a program for raising young people, as well as what should be given special attention when raising children, the importance of education in shaping a child's personality, as well as ways to implement it, and issues of proper child rearing.

Keywords: upbringing, love, values, morality, child rearing, sophistication, intelligence, speech, environment.

Ulug’ mutafakkir olimlarimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiylarning jahon fani va madaniyatiga qo’shgan hissasi bebahodir. Mana, necha asrdirki, bu tabarruk zotlarning ismi-sharifi hamon insonlar tilida hurmat bilan tilga olinadi. Ularning axloq-odob, ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, dono maslahalari hozir ham o’z qimmatini yo’qotmasdan yoshlar tarbiyasida dasturilamal bo’lib kelmoqda. Ularning falsafa, axloq, nafosat, pedagogika, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, astronomiya, musiqashunoslik, geografiya, minerologiya, tabobatga, tabiat va jamiyat qonuniyatlariga oid bebaho asadari bizga meros qolgan. Bu buyuk allomalar o’z asarlarida bola shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning o’rni muhimligini ta’kidlash bilan birga, uni amalga oshirish yo’llari haqida ham batafsil to’xtalib o’tishgan. Masalan, Abu Nasr Farobiy o’zining «Aql to’g’risida» risoiyasida inson axloqi haqida gapirar ekan, uning xislatlarini quyidagicha ta’riflaydi: odamning barcha a’zolari mukammal taraqqiy etgan bo’lishi kerakki, barcha ishlarni oson bajaraolsin; barcha muhokama va mulohazani tez va to’g’ri tushuna oladigan, ma’nosini anglaydigan, so’zlovchining maqsadi va fikrning

chinligini payqasin; xotirasi baquvvat bo’lishi kerak; zehni nihoyatda tez va o’tkir bo’lsin; so’zlari aniq, nutqi ravon bo’lishi kerak; bilish va o’qishga muhabbati zo’r bo’lsin, o’rganmoqchi bo’lgan bilimni osonlik bilan o’zlashtira olsin; ovqatlanishda ichimlik iste’mol etishda ochko’z bo’lmaslik, tabiati qimor o’ynashdan uzoq bo’lsi; haqiqatni, haqiqat tarafdorlarini sevsin, yolg’on va yolg’onchilarga nafrat bilan qarasin; ruhning g’ururi va vijdonini qadrlaydigan, ruhi past ishlardan yuqori, olijanob ishlarga moyil bo’lishi kerak; o’z tabiati bilan adolatni sevadigan, adolatsizlikdan nafratlanadigan bo’lsin; adolatli bo’lsin, lekin qaysar bo’lmasin, qat’iy, qo’rqmas, jasur bo’lsin.

Qo’rqish va ojizlikni bilmasin; Sharq allomalaridan, Ibn Sino esa axloqiy tarbiyani bolalikdan boshlash kerak deb ta’kidlaydi. Shu bilan birga uning axloq normalarini egallashi, tarbiyachi va atrofdagi kishilarda o’rnashib qolgan odatning katta rol o’ynashini uqtiradi. Mana shu jihatdan bolaga yaxshi axloqiy xislatlarni uning yoshligidan berilishi kerakligi haqida gapiradi. U o’zining tibbiy poemasida shunday deydi:

Bolaga do’q qilma, yomon bo’lma qopol,
Uyqu qochar, qo’rqar, axir bo’lar battol.
Yumshoq, beshik bo’lsin o’rni uxlaganda,
Qorong’ulik tushib tursin misli tunday.
Uyg’oq chog’i yorug’likdan ayirmagil.
Yulduz-samo ko’rsin bola, shodlanur dil.
Rang-tuslarni ko’rsat unga turli-tuman,
Kunduz kuni, etmoq esa ko’zni ravshan.
Gar istasang o’rgatmoqqa so’zu kalom,
Erkalatib ovoz chiqar har xil muqom.
Toki balog’at yoshga u etgan qadar,
Qon olmog’u surgilishdan qil hazar.

Ibn Sinoning fikricha, eng muhim axloqiy boylik adolatdir. Lekin inson qanchalik bilimdon, olim bo’lmasin, axloqiy qonunlarga tayanmasa, u odobsizlikka va yomonlikka yo’i qo’yadi. Ibn Sino «Qush tili» asarida ikkiyuzlamachilik, yolg’onchilik, xoinlik kabi xislatlarni qoralaydi. «Kishining eng yaxshi xislatlari bu o’z kamchiliklarini tushunib yo’qotishga intilishidir», - deydi. Bu fikrlardan ko’rinib turibdiki, biz bolalarga to’g’ri tarbiyani tug’ilgandan boshlashimiz zarur ekan. Chunki yoshligidan qo’rqoq qilib o’stililgan farzand vaqti kelib qo’rqoqligi tufayli ota-onani, qarindosh- urug’larni uyatga qo’yishi mumkin. Zero, xalqimizda nimani eksang, shuni o’rasan”- degan maqol bekorga aytilgan emas.

Abu Rayhon Beruniy esa bilimlilikni axloqiy tarbiya bilan bog’laydi. U inson kamolotida axloqiy tarbiyaning ahamiyatini juda muhim deb hisoblaydi. Shuning uchun ham Beruniy kishilar hayotida yomonlikni qoralaydi. Yomoqlikning ildizini quritish kerak, uning ildizi ko’p, lekin asosiysi uchta: ta’ma, g’azab va ilmsizlik deydi. Bu asoslarning negizi esa ishtaha va g’azabdir.

Ishtaha insonning eng kuchli va, uni halokalga duchor etuvchi dushmanidir. Olimning fikricha, bu ildizlar odamni ranj va gunohga olib keladi. Ularning ta’siriga berilib ketgan kishi insoniylik qiyofasini yo’qotadi. Bunday kishilarni olim yirtqich, to’rt oyoqli hayvon, hattoki shayton va iblis hnsobiaydi. U rostgo’yiik, to’g’ri so’zlikni ulug’iaydi, yolg’onchilikni qoralaydi. Insonda axloqlilik eng asosiy sifat bo’lishi kerak. Axloqlilikni insonda birdaniga tarkib toptirib bo’lmaydi, u kishilarning o’zaro muloqoti, ijtimoiy muhit, to’g’ri amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya, shuningdek jamiyat taraqqiyoti davomida tarkib toptiriladi. Alloma insonning ma’naviy qiyofasidagi barcha axloqiy fazilat va xislatlarni yaxshi va yomon deb ikki turga ajratadi

Buyuk alloma Navoiyning ham barcha asarlarida tarbiya asosiy o’rinni egallaydi. Uning «Mahbub ul-qulub» asari esa to’liq tarbiyaga bag’ishlangan. U bu asarida adab, qanoat, sabr, vafo, saxiylik kabi axloqiy fazilatlarga alohida to’xtalib, ta’rif beradi. Masalan, adab haqida shunday

deydi: ...Adabli garchi barcha kishilardan yaxshidir, hamma haloyiqdan yoqimlidir. Adabli o’z tenqurlari orasida bir-biriga maqtanarli bo’ladi, katta-kichik o’rtasida yaxshi ko’rinadi. Saxiylik qilmay, elni shod qiladi, biror narsa hadya qilmay, kishini g’amdin ozod qiladi. Adab kichik yoshdagilarni ulug’lar duosiga sazovor etadi, u duo barakatidin umrbod bahramand bo’ladi. Adab kichiklar mehrini ulug’lar ko’ngliga soladi va u muhabbat ko’ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko’zga ulug’ ko’rsatadi, ularning yurish-turishini xalq ulug’vor biladi. Unga qarshi xalq tomonidan bo’ladigan hurmatsizlik eshigini bog’laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitishdan saqlashini aytadi. Bobokalonimiz yuqorida keltirilgan o’z qarashlarida insoniylikni ulug’lash bilan birga yetuk axloqli, ilmi insoniarga xos bo’lgan fazilatlariga alohida urg’u berib qanoatni suvi tugamaydigan buloqqa, sabrni shodliklar kaliti, saxiylikni hosildor daraxtga o’xshatish bilan inson qilgan yaxshi amallari tufayli hayotda albatta rag’batga, mukofotga sazovor bo’lishini ta’kidlaydi. Ulug’ mutafakkirning bu fikrlari hozirgi kun yo’shlari tarbiyasida ham juda muhimdir. Biz albatta amalga oshirayotgan ta’lim-tarbiya jarayonida buyuk allomalarimiz o’gitlariga amal qilsak jamiyatimiz ravnaqiga o’z hissalarini qo’sha oladigan umidli vorislarni tarbiyalagan bo’lamiz,

Mustaqil O’zbekistonning siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy vazifalarini hal etish ko’p jihatdan jamiyatning va undagi har bir insonning axloqiy darajasiga bog’liq bo’lib, unda axloq shaxs ma’naviyatining asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’ricida»gi PQ-5040-con Qarori.

2. Al-Xorazmiy Muxammad ibn Muso. Tanl. asarlar, “Aljabr va al muqobala hisobihagida qisqa kitob”. T., -1983y.

3. Abu Rayhon Beruniy. Tanl. asarlar to’plami .1t. , T.”Fan”, 1982y

4. . Navoiy A. To’la acarlar to’plami: 10 jildlik. 8- 9-jild. Licon ut-tayr. Majolic ul-nafoic..Farxod va Shirin. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2011.

5. Raximov S. “Ibn Sino ta’lim-tarbiya to’gorisida”.. T., O’qituvchi, 1967y.

5 Sheranova M. Бошланғич таълимда меҳнатсеварликни шакллантиришда одобнома дарсларидан фойдаланиш. Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti .pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Jizzax – 2021. 458-461бетлар